

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSITUTSIYASI INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLARI

M.O.Boboyorov

*O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi
2-son Toshkent akademik litseyi huquqiy
fanlar kafedrasida o'qituvchisi:*

M.M.Axmedov

*O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi
2-son Toshkent akademik litseyi huquqiy
fanlar kafedrasida o'qituvchisi:*

O'z oldiga inson qadri va uning ta'minlanishini xalqning umumiy farovonligini ko'zlashdan ezgu maqsad yo'lida og'ishmay borayotgan davlatimizda islohotlar izchil davom etmoqda. Bu esa davlat organlari, mansbador shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolarni qonuniy manfaatlarini yo'lga xizmat qilishiga undaydigan muhim omildir.

Eng avvalo yangi jamiyatdagi O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi xalqining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinganligi alohida e'tirof etish lozim. Unda inson uning huquq va erkinliklari Konstitutsiya moddalarida belgilangan normalar barchaga birday ta'sir etadi. Bu borada Konstitutsiyaning muvofiqasida shunday deyilgan.

“Demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib”

“Inson uning hayoti erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasidagi hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma'suliyatimizni anglagan holda”

“Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy majlisi yig'ilishida yurtimizdagi islohotlarning pirovard maqsadi inson qadriyatini yuksalishiga qaratilganligini e'tirof etib quyidagicha fikr bildirgan, “Asosiy Qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so'zsiz bajarish “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilini to'la ro'yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimizning bosh mezoni bo'lib qoladi. Inson qadri deganda, biz avvalo, har bir fuqaroni tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarining ta'minlashini nazarda tutamiz”. [O'z R Prezidentining Oliy Majlis qo'shma palatalarining yig'ilishidagi nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi 2023-yil]

O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlari bilan himoya qilinadi. Bu Konstitutsiyaning 54-moddasida belgilab qo'yilgan.

“Insonning huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadidir . Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi.”

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari borasida davlatning barcha organlari o’z faoliyati yo’nalishlarining bosh mezoni sifatida olib bormoqda. Bu yo’lda barcha vazirlik va idoralar qonunga muvofiq faoliyat olib boradi va o’zaro hamkorlikda ishlaydi. Shu bilan birga inson huquq va erkinliklarining, huquqlari kafolatining xolis sud tomonidan ko’rib chiqilishi ta’minlanadi. Har kim barcha qonuniy vositlardan foydalanib belgilangan tartibda sudga, davlat organi va inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotga murojaat etishi ham Konstitutsiyada belgilangan. Inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning mexanizmini yaratilgan va takomillashib bormoqda. Bu o’rinda Oliy majlis inson huquqlari bo’yicha vakili (Ombudsman) faoliyat yuritadi. Konstitutsiyada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomini belgilovchi 109-moddasi 1-bandida ham aniq belgilab qo’yilgan.

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarolarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko’radi.”

Inson huquqlari va erkinliklarini himoyalashda davlat ichki mexanizmining asosiy bo’g’inlari quyidagilar:

1. Adolatli sudlovni amalga oshiradigan sud organlari;
2. Qonunlar aniq bajarilishini nazorat qiladigan va inson erkinliklari va huquqlarini himoyalaydigan prokuratura organlari;
3. Huquqbuzarliklarga chek qo’yilishi va inson huquqlarining himoya qilinishini ta’minlasg bo’yicha majburiyatlarni bajaradigan ichki ishlar organlari.

Mamlakatda inson huquqlari bo’yicha qo’shimcha milliy muassasalar ham tashkil etilgan. Ularga:

1. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo’yicha vakili (Ombudsman);
2. Inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi;
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoring instituti;
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining hududlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo’yicha vakili instituti kiradi.

Xalqaro huquqning to’laqonli subyekti sifatida O’zbekiston Respublikasi o’z hududida Xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsplarini ustunligini amalda ham namoyon etib kelmoqda. Bunga Birlashgan Millatlar Tashkilotining qabul qilgan barcha huquqiy hujjatlarini O’zbekiston Oliy Majlisi tomonidan ratifikatsiya qilingani va milliy qonunchiligimizni xalqaro huquq normlalariga mutanosibligini ta’minlash bo’yicha olib borilayotgan ishlar misol bo’la oladi.

Inson huquqlari va erkinliklari tamoyili borasida davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini ham e’tirof etish zarur. Inson huquqlari milliy

markazi o'z faoliyatining asosi etib inson huquq va erkinliklarini himoya qilishini nazarda tutadi. Aynan shu tashkilot O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirishni, ushbu normalarni milliy qonunchilikda aks ettirilishini va ularning ta'minlashini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi muqaddimasida bu haqida jumladan "Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsplari va normalariga asoslanganligi belgilangan". Inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi 1948-yilda BMTning bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Deklaratsiyasi" va 1966-yilda qabul qilingan "Xalqaro hujjat" lari belgilangan barcha huquqiy normalar ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishini kafolati sifatida davlat o'z organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aynan inson va uning manfaatlariga qaratilgani, bu borada qonunchilikda tegishli o'zgarishlar yuz berayotgani dalildir. Hozirgi kunda nafaqat davlat idoralari shunidek, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari o'rni ham beqiyosdir. Bugunda jamiyatimizdagi yangicha fikrlash, inson ongi va tafakkurida uning huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat ekanligini anglash jarayoni davom etmoqda. Bu yo'lda nazoratning o'ziga xos shakli sifatida Jamoatchilik nazorati tushunchasi yuzaga kelgan bo'lib bu faoliyatning asosini bevosita jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. Kuchli demokratik davlatdan odil fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida keng jamoatchilikning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashni, huquq buzulish holatlarida tegishli davlat organlari orqali bu huquqlar tiklanishini, qonun tantanasiga erishish eng asosiy vazifa sifatida qarash davr talabidir. Bu jarayonlarda jamiyatimizning har bir a'zosi yuksak manaviy va ahloqiy fazilatlarini shakllantirib borishi, o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa kishilarning huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligi talab etiladi. Har bir shaxs qonuniy yo'llar bilan o'z huquq erkinliklarini amalga oshirish uchun teng imkoniyatlar yaratilgan davlatimizdagi ishlar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Galdagi vazifa davlatning, uning maxsus organlarini faoliyatini takomillashtirish, milliy qonunchiligimizni xalqaro huquq normalariga, boy tarixiy tajribaga asoslangan mukammal huquqiy asoslar yaratilishini yanada yuqori darajaga ko'tarishdir. Shu o'rinda inson huquqlari kafolati sifatida O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi bir moddani keltirish maqsadga muvofiqdir. Bu Konstitutsiyaning 56-moddasi bo'lib unda "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarni to'ldiradi, fuqarolik hamjamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi. Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi".

Bu faqat davlat organlari tomonidan emas, balki har bir fuqaroga ham bog'liq omildir. Negaki huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning qonunlarni qay darajada bilish ularning huquqiy ongi va madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir. Davlat va jamiyat oldidagi eng dolzarb vazifa fikrimizga aynan huquqiy savodxonlikni oshirishdir. Bu yo'lda byuk tariximizdan qolgan "bir yoqadan bosh chiqarib" hamjihatlikda ishlarni tashkil qilish shubhasiz ijobiy natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

2023-yil 30-aprel

- O'z R Prezidentining Oliy Majlis qo'shma palatalarining yig'ilishidagi nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi 2023-yil

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Abduraxmonov, A. and Askarov, X., 2023. METALL TO 'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI. GOLDEN BRAIN, 1(3), pp.189-191.

Абдурахманов, А.М., 2023. ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИМ ЗАНЯТИЯМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(5), pp.43-47.

Абдурахманов, А.М., 2023. ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИМ ЗАНЯТИЯМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(5), pp.43-47.

Абдурахманов, А.М., 2023. ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИМ ЗАНЯТИЯМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(5), pp.43-47.

Абдурахманов, А.М., 2023. ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИМ ЗАНЯТИЯМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(5), pp.43-47.

Абдурахманов, А.М., 2023. ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИМ ЗАНЯТИЯМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(5), pp.43-47.